

Markaziy Osiyo tafakkurida islom falsafasining tadrijiy rivoji

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**MARKAZIY OSIYO TAFAKKURIDA ISLOM
FALSAFASINING TADRIJIY RIVOJI**

**«ПОЭТАПНОЕ РАЗВИТИЕ ИСЛАМСКОЙ
ФИЛОСОФИИ В МИРОВОЗЗРЕНИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ
АЗИИ»**

**«STAGED DEVELOPMENT OF ISLAMIC PHILOSOPHY
IN THE WORLDVIEW OF CENTRAL ASIA.**



**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA**

Buxoro shahri, 2025-yil 15-may

Allohning yaratgan muvozanatli tizimi bo‘lib, uni buzish — nafaqat atrof-muhitga, balki ruhiy va ma’naviy hayotga ham zarar yetkazadi. Shunday ekan, musulmon kishi o‘z e’tiqodi asosida tabiatni asrashga mas’uldir. Bu yondashuv insoniyatning ekologik muammolariga barqaror yechim topishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sahihul Buxoriy 6-nashr. Hilol-nashr, Toshkent-2018. 662 bet.
2. <https://www.muslim.uz/uz/e/post/27148-tabiatni-asrashga-oid-10-ta-ilohiy-korsatmalar?page=3&per-page=1>
3. Sharafovna, B.R. (2023). The book-the history of humanity, the immortal spirit. Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya jurnali| journal of science, education, culture and innovation, 2(11), 6-13.
4. Sharofovna, B.R. (2023). Specific aspects of improving the intellectual competence of women in developed countries. journal of science, research and teaching, 2(12), 113-117.
5. Ro‘zigul, B. (2023). Kitob-qadriyat yukini ajdoddan avlodga ko‘taruvchi kemadir. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 883-890).
6. Bozorova, R.Z. (2024). Increasing the intellectual potential of women is the demand of the times. Modern Science and Research, 3(2), 724-731.
7. Sharofovna, B.R.Z. (2024). Islomda ayollar o‘rni va munosabat. Journal of theory, mathematics and physics, 3(1), 136-143.

YUSUF QORABOG‘IYNING BILISH NAZARIYASI.

Davronov Otabek Ulug‘bek o‘g‘li – BuxDU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yusuf Qorabog‘iyning bilish nazariyasi – ya’ni insonga xos idrok, anglash va ma’rifatga erishish yo‘llari borasidagi qarashlari tahlil qilinadi. Muallif asarlarida ilm va ma’rifat, qalb pokligi, ruhiy yuksalish orqali haqiqatni anglash yo‘llari sharhlanadi. U tasavvuf va falsafiy an’analarni uyg‘unlashtirgan holda bilishni faqat aqliy emas, balki qalbiy-ma’naviy yo‘l bilan ham erishiladigan jarayon sifatida ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: bilish, sezgi, Haft behisht, idrok, ko‘rish, sezish, eshitish, ichki hislar, tashqi hislar.

Аннотация: В данной статье анализируются взгляды Юсуфа Карабаги на теорию познания — то есть восприятие, осмысление и пути достижения знания, присущие человеку. В своих трудах автор раскрывает пути постижения истины через науку и познание, очищение сердца и духовное возвышение. Он показывает, что знание достигается не только посредством разума, но и через духовно-сердечный путь, сочетая суфийские и философские традиции.

Ключевые слова: познание, ощущения, Хафт бешишт, восприятие, зрение, осязание, слух, внутренние чувства, внешние чувства.

Annotation: This article analyzes Yusuf Qarabagi's views on the theory of knowledge — that is, human perception, comprehension, and the ways of attaining knowledge. In his works, the author elaborates on the paths to understanding truth through science and enlightenment, purification of the heart, and spiritual elevation. He demonstrates that knowledge is achieved not only through reason but also through a spiritual and heartfelt approach, integrating both Sufi and philosophical traditions.

Keywords: knowledge, sensation, Haft Bihisht, perception, sight, touch, hearing, inner senses, external senses.



Yusuf Qorabog'iy XVII -asrda yashab o'tgan taniqli turkiy mutafakkir, shoir va tasavvufiy tafakkur egasi bo'lib, uning eng mashhur asari «Haft behisht» (yetti bog') deb ataladi. Asarda nafaqat tasavvufiy ramzlar, balki chuqur falsafiy tafakkur, xususan bilish nazariyasiga oid muhim g'oyalar mavjud. Bu maqolada mutafakkirning bilish haqidagi qarashlari, bilish vositalari, haqiqatga erishish usullari va buning inson qalbi bilan bog'liqligi yoritiladi. U Sharqning mashhur mutaffakirlari Forobiy, Ibn Sino, Beruniyning falsafalari izidan borib, obyektiv voqelikni bilib olamni bilishning darajalari, bilishning shakl va turlari, hissiy va bilishning xususiyatlari kabi masalalarni yoritib berdi [1, 84b].

Qorabog'iyning bilish haqidagi ta'limotning xususiyatlari, tabiiy va ilmiy fikrlari, uning tibbiyruhxshunoslik, riyoziyot va boshqa fanlarni yaxshi bilish bilan bog'liqdir. Yusuf Qorabog'iyning falsafaviy merosining tadqiqi shuni ko'rsatadiki, u agnostizmdan uzoq bo'lib, olamni bilish pozitsiyasida turadi. Qorabog'iy olamni bilish masalasini o'zining ko'p asarlarida jumladan, "Yetti jannat" risolasida tadqiq qiladi.

Qorabog'iyning fikricha, narsalarni bilish bir lahzali hodisa bo'lmasdan, ko'p bosqichli jarayondir. Bu qoida quyidagicha asoslanadi; Bu shunga o'xshaydiki, uzoqdan odamni ko'rganimizda, bizda uning o'ziga o'xshagan jonli jonzot, daraxt, tosh va hokazolarni, ya'ni insonga nisbatan qandaydir moddiylikni mujassamlantirgan obrazi paydo bo'ladi. Keyin unga yaqinlashganimiz sari bizda boshqa, ko'proq toshga emas daraxtga o'xshagan ya'ni insonga nisbatan qandaydir o'simlikka yaqin obraz vujudga keladi. Keyin unga yanada yaqinlashganimizda daraxtni emas, hayvonni eslatadigan obraz paydo bo'ladi. Oxirida yanada yaqinlashsak, otga ham sigirga ham o'xshamaydigan inson obrazi paydo bo'ladi [2, 99b].

Bu fikr inson o'z bilimini tashqi olamdan olishini, uning bilishi noaniq, mavhumlikdan aniqlik, komillik tomon borishini ko'rsatib beradi.

Qorabog'iy fikricha «Umumiy bilish narsalar haqidagi asl bilish emas» [3, 190b], chunki «zarur bilimlarni egallashga juziy narsalarni sezish orqali erishiladi»[3, 110b].

Qorabog'iyning bu g'oyat muhim, sensualizmga moyilligi ko'zga tashlanib turgan fikri, ayniqsa, insoning umumiy bilimlarining mistik kelib chiqishi haqida diniy-idealistik g'oyalar hukmronligi davrida nihoyatda aktual jaranglagan. Bu fikrlar mutakallimlarning sistemasiga qarama-qarshidir.

Malumki, mutakallimlar sistemasidagi asosiy qoidalardan biri-xissiy bilishlarni, binobarin, bizning bilimlarimizning voqelikka muvofiqligi prinsipini inkor etishdir. Qorabog'iy fikricha, tashqi hislar orqali kelgan ma'lumotlar ichki hislar orqali tanlab olinadi, tahlil qilinadi va keyin tafakkur bilan bilib olinadi. Bilish predmeti biluvchi subyektdan mustaqil yashaydi. «Narsa haqidagi bilimning





yoʻqligi narsaning yoʻqligini anglatmaydi» [3, 303b]. Insonning aqliga nimaiki kelsa sezish orqali keladi, shuning uchun ham insonning birinchi idroki hissiy bilimdir, u moddiy chunki hissiy azolari faoliyati bilan bogʻliq va unga boʻysunadi.

Oʻrta asrlarda arab tilidagi falsafada ichki hislar haqidagi taʼlimot ancha keng tarqalgan edi. Bu maʼlumot boʻlgan beshta koʻrish, sezish, eshitish, hid va tam bilishdan tashqari ichki hislar boʻlib, ularning soni turli mutafakkirlarda turlicha uchtdan beshtagacha uchraydi.

Qorabogʻiy yuqorida sanab oʻtilgan oʻnta tashqi va ichki hislarning har biriga alohida toʻxtalib oʻtadi. Masalan u yozadi: «Sezish hissi terida asablarning asosiy qismida va tana azolarida toʻplangan va butun badanga yoyilgan hayvoniy ruhning asosiy koʻrinishlaridir agar biror moddiy narsaga jismoniy tegmasa uni bilolmaydi. Faqat tegish orqaligina badandan sezish hissi orqali issiq, sovuq, quruq, hoʻl, silliq, notekis yengillik va ogʻirlikni biladi».

Yusuf Qorabogʻiyning falsafiy qarashlariga koʻra, bilish — mavjudot shaklining biluvchida vujudga kelishidir. U oʻzidan oldingi peripatetiklar singari ularni ikki shakl va guruhga yaʼni ichki va tashqi hislarga boʻladi. Mutaffakir ichki va tashqi hislarning majmuasini hayvoniy quvvat deb nomlaydi va yozadi: «Har biri besh qismdan iborat tashqi va ichki hislar hayvoniy quvvat hisoblanadi» [4, 244bb]. Qorabogʻiy bilish nazariyasini bir necha bosqichlarga ajratgan holda tushuntirishga harakat qiladi: Birinchi bosqich tashqi sezgi — tashqi olamga oid sezgi aʼzolari orqali olinadigan bilim. Ikkinchi bosqich ichki sezgi — tasavvur, xotira kabi ichki faoliyat orqali shakllanadigan bilim. Uchinchi bosqich aqliy bilish — umumlashtirish va tafakkur orqali hosil qilinadigan bilim.

Qorabogʻiy qarashlariga koʻra tashqi hislarni umumiy his, xayol, tassavur, vahm va yondosh hislardan iborat deb hisoblaydi. Uningcha barcha ichki va tashqi hislar organizm bilan tashqi olam orasida idrok aloqasini yaratish bilan birga organizmda moʻtadil vaziyatning vujudga kelishiga koʻmak berishdan iboratdir.

Xulosa oʻrnida aytadigan boʻlsak Yusuf Qorabogʻiy bilishni shaklning biluvchida paydo boʻlishi sifatida tushunadi. U bilish jarayonini tashqi sezgidan boshlab, aqliy darajagacha olib chiqadi. Bilish ikki shaklda — husuliy va huzuriy tarzda roʻy beradi deb hisoblaydi. Bu yondashuv Qorabogʻiy falsafasida bilishning nafaqat idrok, balki mavjudot bilan bogʻliq shakliy birligiga asoslanishini koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nuritdinov M. Yusuf Qorabogʻiy va Oʻrta Osiyoda XVI-XVII asrlardagi ijtimoiy falsafiy fikr. «Fan».T.,1991. -B.121
2. Yusuf Qorabogʻiy. Hikmat-ul ayn sharhiga hoshiya. B.99.
3. Yusuf Qorabogʻiy. Xoqoniya risolasi. B. 303.
4. Yusuf Qorabogʻiy. Haft behisht. Sah.244a.



SHARQ MUTAFAKKIRI NARSHAXIYNING IJODIDA FALSAFA VA ISLOMNING BETAKROR UYG'UNLIGI. <i>Kalandarova F.A.</i>	368
TURKISTON VA OZARBAYJON JADID MUTAFAKKIRLARI FAOLIYATIDAGI UYG'UNLIK MASALASI. <i>Haqqulov N.Q.</i>	370
ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ АБУ НАСР АЛЬ-ФАРАБИ. <i>Хасанова З.Д.</i>	374
HAKIM DAVOIYNING «FAVOYID AL-INSON» ASARIDA SALOMATLIK FALSAFASI. <i>Rajabov O.A.</i>	376
AMIR SHOHMURODNING TASAVVUF TA'LIMOTIDA TUTGAN O'RNI. <i>Subxonova N.A.</i>	379
YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM- TARBIYANING O'RNI VA UNING IJTIMOIIY-FALSAFIY JIHATLARI. <i>Qaxxorova S.Q.</i>	384
YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR MA'NAVIY-MA'RIFIY SALOHIYATINI OSHIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY JIHATLARI. <i>Qaxxorova S.Q., Muxiddinova M.</i>	388
DISRUPTION AS A CATALYST FOR RENEWAL: HISTORICAL PERSPECTIVES ON COLLAPSE AND INNOVATION. <i>Kodirova M.G.</i>	393
ИСЛОМ ДИНИДА АТРОФ МУХИТГА БЎЛГАН АКЦИОЛОГИК ЁНДАШУВЛАР. <i>Ғуломов А.Б.</i>	396
ШАХС ИЖТИМОИЙ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ДИНИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИ ЎРНИ. <i>Халикова С.Т.</i>	399
«ЧИБИРДОН ОТА» ТАРИХИЙ-МАЪРИФИЙ РИСОЛАСИ ҲАҚИДА. <i>Раҳмонов А.</i>	402
YETTI PIR ZIYORATGOHLARI «ZIYORAT TURIZMI»NI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA. <i>Safarov T.T.</i>	404
ISLOM FALSAFASIDA AXLOQIY MEZONLARGA ASOSLANGAN EKOLOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI. <i>Bozorova R.Sh.</i>	407
YUSUF QORABOG'IYNING BILISH NAZARIYASI. <i>Davronov O.U.</i>	410

**Мақолаларда келтирилган ихтибослар (цитаталар) ва мақолалар
мазмунини учун жавобгарлик муаллифлар зиммасида.**